


Atrofimizdagi axborot



- Axborot haqida nimalarni eslay olasiz?
- Axborot qanday ko'rinishlarda bo'ladi?
- Axborotni boshqa insonlarga uzatish uchun uni qanday yozib olish mumkin?

Axborot bizni hamma joyda o'rab turadi. Biz uni sezgi a'zolarimiz yordamida qabul qilamiz. Biz predmetlarni ko'ramiz, tovushlarini eshitamiz, ta'mi va hidini sezamiz, qo'limiz bilan ushlab his qilamiz.

Axborot turlari



ushlab his qilish



ta'm bilish



hid bilish



ko'rish



eshitish

Axborotni turli usullar bilan uzatish mumkin. Uni qog'ozga belgilar bilan yozish, ovoz chiqarib aytish, rasm yoki fotosurat ko'rinishida taqdim etish mumkin.

Axborotni taqdim etish



1. Har bir axborot turiga uchtdan misol o'ylab toping. Misollaringizni partadoshingiz keltirgan misollar bilan solishtiring. Nechta misol mos keldi?



2. Har bir holatda axborot qanday taqdim etilganligini aniqlang:
 - tabriknomada;
 - videoxabarda;
 - informatika darsligida;
 - yo'l belgilarida.



3. Quyida keltirilgan iboralardan birini tanlang va uni imo-ishora yoki mimika orqali sinfdoshlaringizga ko'rsatishga harakat qiling.

Bilim – yorug'lik,
bilimsizlik – zulmat.


Non hamma
narsadan aziz.

Ikki karra ikki –
to'rt.

Ko'p o'qigan ko'p
biladi.



4. Ushbu belgi va qurilmalarda qanday axborotlar ko'rsatilganligini aniqlang.



5. Savollarga javob bering.

- **Axborot** qanday ko'rinishlarda bo'ladi?
- Axborotni qanday usullar bilan taqdim etish mumkin?
- Jonsiz obyektдан jonli obyektga hamda jonli obyektдан jonsiz obyektga axborot qanday uzatilishiga misollar keltiring.

